



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



OILADAGI MUNOSABATLARNING BOLALAR XARAKTERINING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Turg'unova Gulzoda Botir qizi

*UBS universitetining Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqola oiladagi munosabatlarning bolalar xarakteri va shaxsiyati shakllanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada turli psixologik nazariyalar va amaliy tadqiqotlar asosida oilaning bolaning axloqiy, ijtimoiy va emotsiional rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Oiladagi axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va ota-onaning tarbiyaviy roli, pedagogik madaniyat va tayyorgarlik, sog'lom axloqiy muhit va ta'sir omillari, bola va an'anaviy qadriyatlar, ota-onaning shaxsiy namunasi, giperproteksiya, giperproteksiyaning shakllari va natijalari, o'ta kuchli axloqiy mas'uliyat va uning tarbiyadagi roli, emotsiional raddiya va ota-onaning bola bilan munosabati, qattiqo'lllik va uning psixologik ta'siri.*

Annotation. *This article is dedicated to studying the impact of family relationships on the formation of children's character and personality. The article examines the influence of the family on children's moral, social, and emotional development based on various psychological theories and practical research.*

Keywords. *Family moral upbringing, national values and the educational role of parents, pedagogical culture and preparation, healthy moral environment and influencing factors, children and traditional values, parental role model, hyperprotection, forms and consequences of hyperprotection, excessive moral responsibility and its role in upbringing, emotional rejection and the relationship between parents and children, strictness and its psychological impact.*

Аннотация. Статья посвящена изучению влияния семейных отношений на формирование характера и личности детей. В статье на основе различных психологических теорий и практических исследований рассматривается влияние семьи на нравственное, социальное и эмоциональное развитие детей.

Ключевые слова. Семейное нравственное воспитание, национальные ценности и воспитательная роль родителей, педагогическая культура и подготовка, здоровая нравственная среда и факторы влияния, дети и традиционные ценности, родительская ролевая модель, гиперопека, формы и последствия гиперопеки, чрезмерная моральная ответственность и ее роль в воспитании, эмоциональное отвержение и взаимоотношения родителей и детей, строгость и ее психологическое воздействие.

Oiladagi axloqiy tarbiyaning ahamiyati bugungi kunda nafaqat oila, balki jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni va xalq





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



pedagogikasining asosiy printsiplarini hisobga olgan holda, bolalarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish nafaqat bola, balki uning oilasi va jamiyatining kelajagini belgilaydi. Bu boroda Prezident Shavkat Mirziyoyev oilaning jamiyatdagi o‘rni va farzand tarbiyasidagi ahamiyati haqida ko‘plab fikrlar bildirgan. Uning ta’kidlashicha, oila inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, farzandlarning tarbiysi va yetuk shaxs sifatida shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Prezident Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra: "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi." Shuningdek, u oilaning jamiyatdagi o‘rni haqida shunday deydi: "Oila – mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir."

Prezident yoshlarni oilaga mas’uliyat bilan yondashishga chaqirib, shunday deydi: "Tur mush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas’uliyat bilan qarang."

Ushbu fikrlar oiladagi munosabatlarning bolalarning shaxsiyati shakllanishidagi muhimligining yaqqol dalili desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oila ikki ustundan iborat: iqtisod va ma’naviyat. Oilani shu ikki ustundan birini yo‘qotish mumkin emas. Iqtisodda imkoniyatdan, ma’naviyatda esa sharoitdan kelib chiqmoq kerak. Oilada muvozanatni saqlash bola tarbiyasiga to‘g‘ri ta’sir qiladi. Beruniy oiladagi tinchlikni, ayniqsa, ayol zimmasiga yuklaydi. U ayollarga o‘z xulq-atvorini va muomalasini oilaviy munosabatlarga moslashtirishni tavsiya etadi, chunki bu bola xarakterining shakllanishiga ta’sir qiladi.

Agar oila ichida hurmat, mehr-muhabbat, shirin so‘zlar bo‘lsa, bu bola ongida tinchlik va hurmat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Aksincha, oiladagi doimiy janjallar, talablar va mojarolar bolalarda salbiy xulq-atvorlarni keltirib chiqaradi. Deyl Karnegi va Pifagor ham oilada muloyimlik va xushmuomalalikni ta’kidlaydi, chunki ularning yo‘li bola tarbiyasida barqarorlikni ta’mindaydi.

O‘zbekistonda 1998-yilda "Oila" yili e’lon qilinishi va oila haqida qonuniy qat’iy qarorlar qabul qilinishi oilaning jamiyatdagi rolini mustahkamladi. Oila farovonligi va uning ichki muvozanati bola tarbiyasida eng asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyada oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida belgilangan, bu esa bola xarakterining shakllanishida oila ta’sirining muhimligini ko‘rsatadi.

Yuqorida ta’kidlaganimdek, oila tarbiysi katta mas’uliyatni ota-onada zimmasiga yuklaydi, ammo bolalar tarbiyasida eng asosiy ta’sirchan kuch – albatta ona bo‘lib, u bola ruhiga axloq-odob qadriyatlarini singdiradi. Oiladagi tarbiyaning to‘g‘ri yo‘nalishi, ota-onaning dunyoqarashi va xulq-atvoriga bog‘liq. Negaki, ota-onalar o‘z farzandlariga o‘zları o‘rgangan axloqiy fazilatlarni o‘rgatib, bola ongini shakllantiradi. Ayniqsa, o‘zbek oilalarida "sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" degan maqolning ahamiyati katta va bu bejizga aytilmagan. Shuningdek, oilada kattalar tomonidan berilgan axloqiy qadriyatlar – hurmat, shafqat,adolat va mehnatsevarlik – bola ongida shakllanadi. Shu bilan bir qatorda,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



oilada bolaning o‘zgalar manfaatini o‘zidan ustun qo‘yish va jamiyat manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yish muhimdir. Bu esa bola tarbiyasida fuqarolik hissi va vatanparvarlikni shakllantiradi.

Milliy-axloqiy qadriyatlar o‘zbek oilasida asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bugungi kunda bu qadriyatlarni bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish oilaviy tarbiyaning muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Chunki, oila ichidagi axloqiy muhit bola xarakterining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Quyida keltirilgan beshta namuna oiladagi munosabatlarning bola xarakteriga ta’sirini turli jihatlarda ko’rsatib beradi.

1. Oiladagi axloqiy tarbiya. Oilada ota-onada bolaga tinchlik va mehr-muhabbat muhitini ta’minlasa, bola odatda o‘zini boshqalar bilan hurmatda tutishni o‘rganadi. Masalan, ota-onalar farzandiga muloyim va hurmatli bo‘lishni o‘rgatadi, bu esa bolaning xarakteriga bevosita ta’sir qiladi.

Bu boradagi nazariyalarni ko’risak, psixolog Erik Eriksonning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalikda ota-onadan olingan mehr-muhabbat va qo‘llab-quvvatlash ishonchli shaxs sifatida shakllanishning poydevori hisoblanadi deb ta’kidlagan.

2. Pedagogik madaniyat va tayyorgarlik. Ota-onalarning bolani intizomli qilishdagi noto‘g‘ri yondashuvi (masalan, qattiq jazolar yoki beparvolik) bolaning xarakterini salbiy shakllantirishi mumkin. Bir oila ota-onada sifatida tarbiya bo‘yicha maxsus kurslarga qatnashsa, bola bilan sog‘lom muloqot qilishni o‘rganib, ijobiy natijaga erishadi. Bu borada esa O‘zbekistonning mashhur pedagogi A. Avloniy “Tarbiya biz uchun hayot-mamot masalasidir” deya ta’kidlab, ota-onalarning bilim va tayyorgarligi bolaning kelajagini belgilashda muhim ekanligini aytgan.

3. Sog‘lom axloqiy muhit va ta’sir omillari. Oilada ota-onalar o‘zaro hurmat va halollikni saqlashsa, bu muhitda bola o‘zini xavfsiz his qilib, ijtimoiy ko‘nikmalarni tezroq egallaydi. Masalan, bolaga qilingan har bir va’da bajarilsa, u o‘z navbatida ishonchli shaxsga aylanadi.

Bu haqda Bronfenbrennerning

ekologik tizim nazariyasiga ko‘ra, oilaviy muhit bola rivojlanishining mikrosistemasi bo‘lib, u bolaning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi degan nazariyani ilgari surgan.

4. Bola va oilaviy an’analar. Bir oilada har hafta oxirida birgalikda film tomosha qilish an’anasi mavjud. Bu nafaqat oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, balki bolani ijtimoiy bo‘lishga undaydi. Bola esa o‘z fikrlarini oilaviy muhitda osonlik bilan ifoda eta oladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, oilaviy an’analarga ega bo‘lgan bolalar kamroq stressga uchraydi va yuqori darajadagi ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi (Anderson va Stevenson, 2021).

5. Ota-onalarning shaxsiy namunasi. Agar ota-onada o‘z vaqtida kitob o‘qishni odat qilsa, bola ham ularga ergashadi. Masalan, o‘qishni yaxshi ko‘radigan ota-onalar farzandlarining o‘qishga qiziqishini o‘stirishi isbotlangan.

Bu haqda esa

Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasida bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yuqorida ta’kidlaganimdek, oilaviy munosabatlar bola xarakterining shakllanishida hal qiluvchi ro’l o’ynaydi. Ota-onalarning tarbiya uslublari va ular tomonidan ko’rsatiladigan e’tibor bolalarning shaxsiyatiga, ijtimoiy ko’nikmalariga va kelajakdagi hayotiga katta ta’sir ko’rsatadi. Quyida tarbiya usulari va ularning oqibatlari haqida qisqacha to’xtalib o’tilgan:

1.“Giperproteksiya – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e’tibori bolib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e’tiborni ayamasliklarida namoyon boladi. Ota-onsa bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya’ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.”

Bolasini erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda ozlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yoq, kopchilikning ichida ozini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida ozini nochor his etadigan, tantiq, erka bolib qoladi.

Giperprotektsiyaning shakllari va natijalari. “Giperproteksiya – ota-onsa tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini kor-korona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va tosiqlardan himoya qilish...” Masalan, ota-onaning bolani barcha hayotiy qiyinchiliklardan himoya qilishga intilishi bolani mustaqil fikrlar qaror qabulishga va kuchli shaxs sifatida shakllanishiga to’sqinlik qiladi.

2. O’ta kuchli axloqiy mas’uliyat va uning tarbiyadagi roli. Ota kuchli axloqiy mas’uliyat – bunda ota-onsa tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori boladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlarini unchalik e’tiborga olinmaydi. Ko’p hollarda o’ta kuchli axloqiy ma’suliyat bolada ortiqcha stress va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ota-onaning yuqori talablariga javob berishga intilgan bola o’z shaxsiy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldiradi, bu esa uning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Psixolog Maslouning ehtiyojlar piramidasiga ko’ra, “o’z-o’zini anglash uchun inson avvalo o’z asosiy ehtiyojlarini qondirishi kerak” degan.

3. Emotsional raddiya va ota-onaning bola bilan munosabati

“Emotsional raddiya – bunda ota-onsa bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-onsa hayotida u o’ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo’limganida ota-onaning hayoti boshqachi bolishi muntazam ravishda eslatib turiladi.” Bu esa bolada o’zini keraksiz his qilish tuyg’usini shakllantiradi. Masalan, ota-onaning bolaning mavjudligini o’z hayotiga ortiqcha yuk sifatida ko’rsatishi bolada past o’z-o’zini baholash va ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin.

5. Qattiqqo’llik va uning psixologik ta’siri:

“Qattiqqo’llik – bir qarashda emotsional rad etishga o’xshaydi, lekin undan ochiqroq va og’irroqdir. Qattiqqo’llik tog’ridan-tog’ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to’la befarqlik, uning bor-yo’qligini go’yoki sezmaslik kabi ko’rinishlarda bo’lishi mumkin.”. Qattiqqo’llik bu bola shaxsiyatiga yomon



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



salbiy ta’sir qilishi mumkin, hamda bu holatlar bolalarning psixologik holatiga ham ta’sir o’tkazmay qolmaydi.

Oilaviy munosabatlarning bola xarakteriga ta’siri juda katta. Tarbiya jarayonida giperproteksiya, qattiqqo’llik va emotsiyal raddiya kabi uslublarning salbiy oqibatlari bolalarning mustaqillik, mas’uliyat va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik ko’nikmalariga zarar yetkazadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, farzand tarbiyasi jarayonida ota-onalar tomonidan muvozanatli va hissiy jihatdan qo’llab-quvvatlovchi yondashuv zarur. Bu esa nafaqat bola shaxsiyati, balki kelajakdagi jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ota-onalarga tarbiya mas’uliyatini chuqur anglash va ilmiy asoslangan uslublarni qo’llash tavsiya etiladi. Chunki ular bizning kelajagamiz va bu munosabatlar bolalarning kelajakdagi hayotiga ham ta’sir ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.Karimova.Oila psixologiyasi.Darslik.Toshkent.2007.113-123 betlar.
2. M.Ishanova.Oila pedagogikasi.O’quv-qo’llanma.Andijon.2019.78-89 betlar.
3. Uri Bronfenbrenner."The Ecology of Human Development".1979.Manba: Khoerul Anwar.
4. Erik H. Erikson."Childhood and Society".1950.Manba:.Cyber Dandy. Internet Archive
5. Abdulla Avloniy."Turkiy Guliston yoxud axloq".1913.Manba:.Ziyouz.com
6. Riana Elyse Anderson va Howard C. Stevenson."Family Rituals and Child Development".2021.Manba: ResearchGate